

“O‘ZAVTOSANOAT” Aksiyadorlik
jamiyati Yagona aksiyadorining
6-2023 -sonli qarori bilan
2023-yil “ *11* ” *oktabrda*



“O‘ZAVTOSANOAT”
aksiyadorlik jamiyatining

USTAVI
(yangi tahrirda)

1-MODDA. UMUMIY QOIDALAR

Aksiyadorlik jamiyati shaklidagi “O‘ZAVTOSANOAT” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda “Kompaniya” deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xo‘jalik boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2003-yil 22-dekabrda PF-3366-son Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Avtomobil sanoatini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2004-yil 23-avgustdagi 405-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik kompaniyasining huquqlari va majburiyatlari bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

Kompaniya o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, farmoyishlari, qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, ushbu Ustavga hamda boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

2-MODDA. JAMIYATNING FIRMA NOMI, JOYLASHGAN JOYI VA ELEKTRON POCHTA MANZILI

2.1. Jamiyatning firma nomi:

2.1.1. Davlat tilida:

- to‘liq firma nomi – “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyati;
- qisqartirilgan firma nomi – “O‘zavtosanoat” AJ yoki O‘zAvto.

2.1.2. Rus tilida:

- to‘liq firma nomi - акционерное общество «Узавтосаноат»;
- qisqartirilgan firma nomi – АО «Узавтосаноат» yoki УзАвто.

2.1.3. Ingliz tilida:

- to‘liq firma nomi – “Uzautosanoat” joint stock company;
- qisqartirilgan firma nomi – “Uzautosanoat” JSC yoki UzAuto.

2.2. Kompaniyaning pochta manzili va joylashgan joyi:

O‘zbekiston Respublikasi, indeks: 100000, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur shoh ko‘chasi, 13-uy.


2.3. Kompaniyaning elektron pochta manzillari:

- info@uzavtosanoat.uz
- uzavtosanoat@exat.uz

2.4. Kompaniyaning rasmiy veb-sayti: www.uzavtosanoat.uz

3-MODDA. KOMPANIYANING HUQUQIY MAQOMI

3.1. Kompaniya yuridik shaxs bo‘lib, u o‘z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkiga, shu jumladan o‘zining ustav fondiga (ustav kapitaliga) berilgan mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy



nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

3.2. Kompaniya davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi.

3.3. Kompaniya belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida bank hisobvaraqlari ochishga haqlidir.

3.4. Kompaniya o'zining firma nomi davlat tilida to'liq yozilgan hamda joylashgan yeri ko'rsatilgan yumaloq muhriga ega bo'ladi.

Kompaniya o'zining nomi yozilgan shtamp va blankalariga, o'z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo'lishga haqli.

4-MODDA. KOMPANIYANING MAQSADI, FAOLIYAT SOHASI VA MUDDATLARI

4.1. Kompaniya o'z faoliyati davomida tarkibiga kiruvchi aksiyadorlik jamiyatlari, tashkilotlari va korxonalarini uslubiy boshqaradi va ularning ishlarini muvofiqlashtiradi.

4.2. Kompaniya faoliyat maqsadi quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasida avtomobilsozlikni rivojlantirish;
- Kompaniyaning mahsulot va xizmatlariga bo'lgan jamiyat talablarini qondirish;


- Kompaniya tarkibiga kiruvchi korxonalarining (keyingi o'rinlarda "Kompaniya korxonalari") ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlari, ularning faoliyatlarini muvofiqlashtirish, ularning huquqlarini har tomonlama himoya qilish, ularga metodik va konsultativ yordam ko'rsatish, umumiy manfaatlarni davlat va boshqa organlarda hamda xalqaro tashkilotlarda himoya qilish orqali amalga oshirish;

- Kompaniya modernizatsiya yo'llarini birgalikda izlash, texnik qayta qurish, ishlab chiqarish kooperatsiyasidan foydalangan holda kengaytirish, ratsional ixtisoslashtirish, ilmiy-texnik g'oyalar va ishlab chiqarishlar bilan almashish bo'yicha imkoniyatlaridan foydalanish, Kompaniya korxonalari o'rtasida o'zaro foydali xo'jalik munosabatlarini o'rnatish,

- o'zining faoliyatidan daromad olish.

4.3. Kompaniya o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradi:

- o'rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda avtomobilsozlikni barqaror rivojlantirish strategiyasi va dasturlarini ishlab chiqish, tarmoqda yagona ilmiy-texnik va investitsiya siyosatini o'tkazish;



- marketing tadqiqotlarini tashkil etish, raqobatbardosh mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning yangi turlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirish, ularning jahon bozorlariga kirib borishida ko'maklashish;

- tarmoq korxonalarini zamonaviylashtirishga va texnologiya bilan qayta jihozlashga, ushbu maqsadlar uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ko'maklashish, yetakchi xorijiy firmalar bilan birgalikda avtomobil transportining zamonaviy turlarini, ular uchun butlovchi buyumlar va detallarni ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish;

- avtomobil tarmog'i korxonalari va tashkilotlariga axborot xizmatlarini ko'rsatish;

- tarmoq uchun malakali ishchi kadrlar va mutaxassislar tayyorlashni, menejmentning zamonaviy metodlarini egallagan, bozor sharoitlarida samarali ishlashga qodir bo'lgan boshqaruv kadrlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni tashkil etish;

- Kompaniyaga tegishli bo'lgan aksiya va ulushlar asosida Kompaniya tarmoq korxonalari boshqaruvida ishtirok etish;

- Kompaniya tarmoq korxonalarining qonuniy manfaatlarini Respublika va mahalliy boshqaruv organlarida himoya qilish;

- Kompaniya tarmoq korxonalariga tayyor mahsulotlarni o'tkazishda, xom-ashyo, material va butlovchi qismlar yetkazib berishda va Kompaniya korxonalarining manfaatlariga asosan eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda amaliy yordam ko'rsatish;

- avtomobilsozlik tarmog'i faoliyatini samaradorligini oshirishni o'rganish bo'yicha tarmoq statistika ma'lumotlarini to'plash ;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan tabiiy va texnogen xarakterdagi favqulodda vaziyatlardan ogohlantirish va himoya qilish ishlarini muvofiqlashtirish;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan mehnatni muxofaza etish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish;

- hamkorlikdagi loyihalarni tashkil etish bo'yicha kerakli hujjatlarni tayyorlashda, xo'jaliklararo va tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish bo'yicha shartnoma va kelishuvlar tuzishda ilmiy-texnikaviy, konsultativ va huquqiy yordam ko'rsatish;

- savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnik hamkorlik masalalarini o'rganish, Kompaniya tarmoq korxonalariga ushbu masalalar yuzasidan yordam ko'rsatish;

- progressiv tashkiliy tajriba va yangi texnologiyalarni kiritish va berish, marketing va reklama bo'yicha konsultatsion, boshqaruv va injiniring xizmatlari ko'rsatish;

- Kompaniya tarmoq korxonalari faoliyati masalalari bo'yicha xalqaro konferensiyalar, simpoziumlar, seminarlar, ko'rgazmalar tashkil etish va qatnashish, delegatsiyalar va mutaxassislar almashish;

- Kompaniya korxonalariga qurilishi va kengaytirilishi uchun yer uchastkalari ajratib berish masalalarida texnik va tashkiliy yordam ko'rsatish;

- qurilish buyurtmachisi funksiyalarini bajarish;

- kreditlar ajratilishi uchun kafilliklar berish, Kompaniya korxonalariga moliyaviy yordam ko'rsatish;

- xayriya faoliyati, ya'ni o'tgan hisobot yilida biznes-rejaning sof foyda bo'yicha ko'rsatkichlari bajarilgan taqdirda (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati qarorlarida nazarda tutilgan hollar mustasno), o'tgan hisobot yilida olingan sof foydaning 3 foiz miqdorigacha homiylik yoki boshqa beg'araz yordam ko'rsatilishi mumkin;

- Kompaniya va uning tarmoq korxonalari asosiy faoliyatiga xos bo'lgan ko'chmas mulk bilan operatsiyalarni amalga oshirish;

- ko'rgazmalar, yarmarkalar va auksionlar tashkil etish;

- O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida boshqa davlatlar bilan qo'shma korxonalar tashkil etish;

- dilerlik faoliyatini amalga oshirish;

- korxonalar va tashkilotlar mutaxassis va menejerlarini o'qitish, tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish, jumladan chet el kadrlar tayyorlash markazlarida ham;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida tashqi iqtisodiy faoliyat, shu jumladan chet ellik mutaxassislarni jalb qilgan holda;

- O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga zid bo'lmagan boshqa faoliyatlar.

4.4. Kompaniya avtomobilsozlik va boshqa tarmoqlarning turli korxonalar va tashkilotlari bilan shartnomalar asosida hamkorlikni amalga oshiradi.

4.5. Kompaniya O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq xamma faoliyat turlarini ko'rsatadi. Maxsus ruxsatnoma talab qiladigan faoliyat turlari O'zbekiston Respublikasi vakolatli organlarining tegishli ruxsatnomalari asosida amalga oshiriladi.

Kompaniyaning asosiy faoliyatiga xos bo'lmagan yangi ko'chmas mulk obyektlarini sotib olish yoki qurish, raqobat rivojlangan sohada asosiy faoliyatidan tashqari qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullanish hamda asosiy faoliyatiga xos bo'lmagan xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalida ishtirok etish yoki undagi ulushni sotib olish ta'qiqlanadi. Qonun xujjatlariga muvofiq amalga oshirilayotgan loyihalar bundan mustasno.

4.6. Kompaniya quyidagi huquqlarga ega:

4.6.1. o'z filiallarni tashkil etish va vakolatxonalarni ochish;

4.6.2. yuridik shaxs bo'lgan shu'ba xo'jalik jamiyatlari va tobe xo'jalik jamiyatlariga ega bo'lish;

4.6.3. o'z mablag'larini qo'shma va boshqa turdagi korxonalar tashkil etishga jalb etish va tegishli daromad va foyda olish uchun boshqa turdagi faoliyatlarini amalga oshirish;

4.6.4. profilaktik-davolash va tibbiy-konsultativ (maslahat) muassasalariga va ijtimoiy infratuzilmalarning boshqa obyektlariga ega bo'lish;

4.6.5. soha ishchilarining ijtimoiy talab va ehtiyojlarini qondirish maqsadida dam olish maskanlari, yordamchi xo'jaliklar va boshqa muassasalarga ega bo'lish va (yoki) ularni ijaraga olish.

4.6.6. turli tashkiliy-huquqiy shakllarda boshqaruv kompaniyalarini tashkil etish va ularda sanoatning alohida sohalarini yoki korxonalarni boshqarish maqsadida, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati qarorlari mavjud bo'lgan taqdirda ishonchli boshqaruv orqali ishtirok etish.

4.7. Agar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati qarorlarida boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan bo'lsa, Kompaniya quyidagilarga haqli emas:

4.7.1. Kompaniyani asosiy faoliyatiga xos bo'lmagan yangi ko'chmas mulk obyektlarini sotib olish yoki qurish;

4.7.2. raqobat rivojlangan sohada asosiy faoliyatidan tashqari qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullanish;

4.7.3. asosiy faoliyatiga xos bo'lmagan xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalida ishtirok etish yoki undagi ulushni sotib olish.

Bunda mazkur Ustav tasdiqlangunga qadar bo'lgan holatlar hamda Qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilayotgan loyihalar bundan mustasno.

4.8. Kompaniya faoliyat muddati cheklanmagan.


5-MODDA. KOMPANIYANING USTAV FONDI VA MOL-MULKI

5.1. Kompaniya ustav fondi aksiyadorlar olgan Kompaniya aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi.

5.2. Kompaniya oddiy aksiyalar qatorida bir necha xil turdagi imtiyozli aksiyalar xam joylashtirish huquqiga ega. Joylashtirilgan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymati Kompaniya ustav fondining yigirma foizidan oshmasligi lozim.

5.3. Ustav fondi miqdori 1 861 583 358 718 dona oddiy aksiyaga taqsimlangan 1 861 583 358 718 (bir trillion sakkiz yuz oltmish bir milliard besh yuz sakson uch million uch yuz ellik sakkiz ming yetti yuz o'n sakkiz) so'mni tashkil etadi.

Aksiyalar paketining 100 foiz Davlatga tegishli bo'lib 1 861 583 358 718 (bir trillion sakkiz yuz oltmish bir milliard besh yuz sakson uch million uch yuz ellik



6

sakkiz ming yetti yuz m̄n sakkiz) so‘m yoki 1 861 583 358 718 dona oddiy aksiyadan iborat. Xar bir aksiyaning nominal qiymati 1 (bir) so‘mni tashkil etadi.

5.4. Kompaniya mol-mulki Kompaniya aksiyalari evaziga to‘langan yig‘imlar, o‘z xo‘jalik faoliyatini yuritish mobaynida ishlab chiqargan mahsulotlar, olingan daromadlar xisobidan, xamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko‘zda tutilgan holatlarda qo‘lga kiritilgan mol-mulklardan tashkil topgan.

Kompaniya mol-mulki unga mulk huquqi asosida tegishlidir.

6-MODDA. KOMPANIYANING USTAV FONDINI KO‘PAYTIRISH VA KAMAYTIRISH

6.1. Kompaniyaning ustav fondini qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan ko‘paytirilishi mumkin.

6.2. Qo‘shimcha aksiyalar mazkur ustavda belgilangan e‘lon qilingan aksiyalarning sonidan ko‘p bo‘lmagan miqdorida Kompaniya tomonidan joylashtirishi mumkin.

6.3. Kompaniyaning ustav fondini ko‘paytirish va Kompaniya ustaviga tegishli o‘zgarishlar kiritish to‘g‘risidagi qarorlar Kompaniya Kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

6.4. Kompaniyaning ustav fondini ko‘paytirish to‘g‘risidagi qarorda joylashtiriladigan qo‘shimcha oddiy va imtiyozli aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddatilari va shartlari belgilangan bo‘lishi kerak.


6.5. Kompaniyaning ustav fondini ko‘paytirish joylashtirilgan qo‘shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Bunda mazkur ustavda ko‘rsatilgan, e‘lon qilingan muayyan turdagi aksiyalarning soni ushbu turdagi joylashtirilgan qo‘shimcha aksiyalarning soniga kamaytirilishi kerak.

6.6. Kompaniyaning tegishli boshqaruv organi tomonidan qabul qilingan qo‘shimcha aksiyalarni chiqarish haqidagi qaror Kompaniyaning ustav fondini ko‘paytirish to‘g‘risidagi qarordir.

6.7. Kompaniyaning ustav fondini ko‘paytirishga jalb qilingan investitsiyalar, Kompaniyaning o‘z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

6.8. Kompaniyaning ustav fondini uning o‘z kapitali hisobidan ko‘paytirishda qo‘shimcha aksiyalar barcha aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanadi. Bunda har bir aksiyadorga qaysi turdagi aksiyalar tegishli bo‘lsa, ayni o‘sha turdagi aksiyalar unga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Kompaniyaning ustav fondi ko‘paytirilishi natijasida ko‘paytirish summasining bitta aksiyaning nominal qiymatiga muvofiqligi ta‘minlanmaydigan bo‘lsa, Kompaniyaning ustav fondini ko‘paytirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

6.9. Aksiyalarni joylashtirish, shu jumladan aksiyadorlar o‘rtasida joylashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilishda aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli



qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxi Kompaniyaning Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

6.10. Kompaniyaning aksiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarini joylashtirish chog'ida ularga haq to'lash pul va boshqa to'lov vositalari, mol-mulk, shuningdek pulda ifodalanadigan bahoga ega bo'lgan huquqlar (shu jumladan mulkiy huquqlar) orqali amalga oshiriladi. Kompaniyaning qo'shimcha aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlariga haq to'lash tartibi ularni chiqarish to'g'risidagi qarorida belgilab qo'yiladi.

6.11. Kompaniyaning qo'shimcha aksiyalariga ushbu aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan joylashtirish muddati ichida haq to'lanishi lozim.

6.12. Agar Kompaniyaning puldan o'zga vositalar bilan haqi to'lanayotgan aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarining nominal qiymati qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining ikki yuz baravaridan ko'pni tashkil etsa, Kompaniyaning aksiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarining haqi sifatida kiritilayotgan mol-mulkning pulda ifodalangan bahosi baholovchi tashkilot tomonidan chiqarilishi zarur.

6.13. Kompaniyaning ustav fondi aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan, aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Kompaniya tomonidan aksiyalarni olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

6.14. Kompaniya ustav fondini kamaytirishga, agar buning natijasida uning miqdori Kompaniya Ustav fondining Kompaniya ustavidagi tegishli o'zgartishlarni davlat ro'yxatdan o'tkazish sanasida aniqlanadigan aksiyadorlik jamiyatining ustav fondining eng kam miqdoridan qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdoridan kamayib ketsa, haqli emas.


6.15. Ustav fondini kamaytirish va Kompaniya ustaviga tegishli o'zgartishlar kiritish haqidagi qarorlar Yagona aksiyador tomonidan qabul qilinadi.

7-MODDA. CHIQARILADIGAN AKSIYALARNING TURLARI, ULARNING NOMINAL QIYMATI

7.1. Kompaniya O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida taqiqlanmagan aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarishga haqli.

7.2. Kompaniya xar birining nominal qiymati 1 (bir) so'mga teng bo'lgan, umumiy qiymati 1 861 583 358 718 (bir trillion sakkiz yuz oltmish bir milliard besh yuz sakson uch million uch yuz ellik sakkiz ming yetti yuz m'n sakkiz) so'm bo'lgan 1 861 583 358 718 dona oddiy aksiyalar chiqargan va joylashtirgan.

7.3. Kompaniya joylashtirilgan aksiyalarga qo'shimcha sifatida har birining nominal qiymati 1 (bir) so'mga teng bo'lgan, umumiy qiymati 511 590 322 420 so'mlik 511 590 322 420 dona e'lon qilingan aksiyalarni joylashtirish huquqiga ega.



7.4. Aksiyadorlar aksiyalar uchun to'lovni qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshirishlari mumkin:

- pul va boshqa to'lov vositalari;
- turli xildagi mol-mulk;
- pulda ifodalanadigan bahoga ega bo'lgan huquqlar (shu jumladan mulkiy huquqlar).

7.5. Aksiyalarga bo'lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hisobvarag'iga tegishli kirim yozuvi kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda depozitariy tomonidan beriladigan depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

Aksiya bilan tasdiqlanadigan huquqlar ularni oluvchiga ushbu qimmatli qog'ozga huquqlar o'tgan paytdan e'tiboran o'tadi.

7.6. Kompaniya aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni ochiq va yopiq obuna vositasida joylashtirishga haqli.

Kompaniya tomonidan aksiyalarni joylashtirish muddati ularning chiqarilishi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yildan oshmasligi kerak.

Kompaniyaning aksiyalar va aksiyalarga ayirboshlanadigan boshqa emissiyaviy qimmatli qog'ozlarini joylashtirishi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

8-MODDA. KOMPANIYANING FONDLARI VA SOF AKTIVLARI

8.1. Kompaniyada Ustav fondining o'n besh foizidan kam bo'lmagan miqdorida zaxira fondi tuziladi. Kompaniyaning zaxira fondi har yili sof foydadan majburiy ajratmalar o'tkazish orqali tashkil etiladi.

8.2. Har yillik ajratmalar miqdori Zaxira fondi Kompaniya ustav fondining 15 foiziga yetguniga qadar Kompaniya sof foydasining 5 foizidan kam bo'lmagan miqdorida, Zaxira fondi Kompaniya ustav fondining 15 foiziga yetganidan keyin esa – Kompaniya sof foydasining bir foizidan kam bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

8.3. Boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, Kompaniyaning zaxira fondi jamiyatning zararlari o'rnini qoplash, Kompaniyaning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va Kompaniyaning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi.

Zaxira fondidan boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin emas.

8.4. Kompaniya sof aktivlarining qiymati buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha, Kompaniya aktivlari va majburiyatlarining umumiy summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

8.5. Kompaniya boshqa fondlarini tashkil etishi mumkin.

9-MODDA. KOMPANIYANING BOSHQARUV ORGANLARI

9.1. Kompaniyaning boshqaruv organlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- Yagona aksiyador;



- Kuzatuv kengashi;
- Ijroiya organi.

10-MODDA. YAGONA AKSIYADOR

10.1. Yagona aksiyador Kompaniyani boshqarishning oliy organidir. Ushbu Ustav va qonunchilik bilan Yagona aksiyadorning vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtiriladi.

10.2. Yagona aksiyador har yili yillik qarorlarni qabul qiladi. Yagona aksiyadorning yillik qarorlardan tashqari qabul qiladigan qarorlari navbatdan tashqari qarorlar hisoblanadi.

10.3. Yagona aksiyadorning yillik qarori moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay, ya'ni 30 iyunda o'tkaziladi, agar aksiyador yoki kuzatuv kengashining a'zolari tomonidan boshqa muddatlar belgilanmasa.

Yagona aksiyadorning yillik qarorida quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi:

- Kompaniyaning kuzatuv kengashi va taftish komissiyasini (taftishchisini) saylash to'g'risidagi (taftish komissiyasi (taftishchisi) mavjud bo'lgan taqdirda);

- boshqaruvi raisi va uning o'rinbosarlari bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi;

- Kompaniyaning yillik hisoboti;

- Kompaniya Kuzatuv kengashining hisoboti;

- qonunchilikka muvofiq boshqa masalalar ko'rib chiqiladi.

10.4. Yagona aksiyador tomonidan qarorlar qabul qilish tartibi, taqdim etiladigan materiallar (axborotlar) "O'zavtosanoat" AJning Yagona aksiyador to'g'risidagi Nizomida belgilab qo'yiladi.

10.5. Yagona aksiyadorning vakolatlariga quyidagilar kiradi:

10.5.1. Kompaniya ustaviga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish yoki Kompaniyaning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash;

10.5.2. Kompaniyani qayta tashkil etish;

10.5.3. Kompaniyani tugatish, tugatuvchini (tugatish komissiyasini) tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;


10.5.4. Kompaniya kuzatuv kengashining son tarkibini belgilash, uning a'zolarini saylash va uning vakolatlarini muddatidan ilgari to'xtatish;

10.5.5. e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

10.5.6. Kompaniyaning ustav fondini kamaytirish va ko'paytirish;

10.5.7. o'z aksiyalarini olish;

10.5.8. Kompaniyaning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, ijroiya organini tuzish, uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;



10.5.9. Kompaniya taftish komissiyasining a'zolarini (taftishchini) saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari to'xtatish, shuningdek taftish komissiyasi (taftishchi) to'g'risidagi nizomni tasdiqlash (taftish komissiyasi (taftishchisi) mavjud bo'lgan taqdirda);

10.5.10. auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risida, auditorlik tashkilotini va uning xizmatiga to'lanadigan haq miqdori chegarasini belgilash to'g'risida qaror qabul qilish;

10.5.11. Kompaniyaning yillik biznes-rejasini, yillik hisobotini tasdiqlash, foyda va zararlarini taqsimlash;

10.5.12. Kompaniyaning foyda va zararlarini taqsimlash;

10.5.13. Kompaniya kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining (taftishchisining) o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Kompaniyani boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan Kompaniya kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining (taftishchisining) xulosalarini eshitish (taftish komissiyasi (taftishchisi) mavjud bo'lgan taqdirda);

10.5.14. aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni sotib olishda aksiyadorning imtiyozli huquqini qo'llamaslik to'g'risida qonunchilikda nazarda tutilgan qarorni qabul qilish;

10.5.15. Kompaniya tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

10.5.16. qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

10.5.17. Kompaniyaning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

10.5.18. aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

10.5.19. agar Kompaniya kuzatuv kengashining ikki va undan ortiq a'zosi affillangan shaxs bo'lsa, bitim tuzish bo'yicha qaror qabul qilish;

10.5.20. bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada Kompaniya aktivlari balans qiymatining ellik foizidan ortiq Kompaniyaning mol-mulk sotib olishi va mol-mulkni begonalashtirishi bilan bog'liq yirik bitimlarni tuzish;

10.5.21. Kompaniya kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan taqdirda yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilish;

10.5.22. Kompaniyaning boshqaruv organlari faoliyat tartibini belgilovchi hujjatlarni va Kompaniyaning korporativ boshqaruv prinsiplarini belgilovchi ichki nizomlarini tasdiqlash;

10.5.23. aksiyadorlik jamiyatining 5 yil va undan ortiq bo'lgan uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini tasdiqlash;

10.5.24. qonun hujjatlariga va ushbu Ustavga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

Yagona aksiyadorning vakolatlariga kiritilgan masalalar Kompaniyaning kuzatuv kengashiga hal etishi uchun berilishi mumkin emas, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

10.6. Yagona aksiyador qarorlari o'rnatilgan tartibda oshkor etiladi. "Maxfiy" va "Xizmat doirasida foydalanish uchun" ustixati ostidagi qarorlar bundan mustasno.

11-MODDA. KUZATUV KENGASHI

11.1. Kompaniyaning Kuzatuv kengashi Kompaniya faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi, ushbu Ustav va qonunchilik bilan Yagona aksiyador vakolatlariga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

11.2. Kompaniyaning kuzatuv kengashi to'qqiztagacha a'zodan iborat bo'lishi mumkin.

11.3. Kompaniyaning kuzatuv kengashi a'zolari tarkibining uchdan ikki qismini mustaqil a'zolar tashkil etishi mumkin, biroq kuzatuv kengashi tarkibida kamida bir nafar mustaqil a'zo bo'lishi kerak.

11.4. Quyidagilar Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi bo'lishi mumkin emas:

- so'nggi uch yil ichida Kompaniyada va (yoki) Kompaniyaning affillangan shaxslarida ishlagan shaxs;

- Kompaniya ovoz beruvchi aksiyalarining besh yoki undan ortiq foiziga egalik qiluvchi (to'g'ridan-to'g'ri va (yoki) affillangan shaxslar orqali) aksiyador;


- Kompaniyaning va (yoki) uning affillangan shaxsining yirik mijozi va (yoki) yirik yetkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo'lgan shaxs. Bunda qaysi shaxslar bilan bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming baravaridan ko'p bo'lgan summaga teng amaldagi shartnoma mavjud bo'lsa, o'sha shaxslar yirik mijoz va yirik yetkazib beruvchi deb e'tirof etiladi;

- so'nggi uch yil ichida Kompaniyaga va (yoki) Kompaniyaning affillangan shaxslariga auditorlik xizmatlarini ko'rsatgan auditorlik tashkilotining xodimi;

- ketma-ket olti yil davomida Kompaniyaning kuzatuv kengashi tarkibiga kirgan shaxs;

- Kompaniya va (yoki) uning affillangan shaxslari bilan biror-bir kelishuvga ega bo'lgan shaxs, bundan kuzatuv kengashi a'zosining vazifalari va funksiyalari bajarilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan kelishuvlar mustasno;

- Kompaniyaning boshqaruv va ichki nazorat organlarining va (yoki) uning affillangan shaxslarining a'zosi bo'lgan shaxsning yoki so'nggi uch yil ichida ularga a'zo bo'lgan shaxsning yaqin qarindoshi yoki quda tomondan qarindoshi (ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari, o'g'illari, qizlari, eri (xotini), shuningdek erining (xotinining) ota-onasi, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari) bo'lgan shaxs,



- davlat boshqaruvi organining yoki davlat korxonasining xodimi bo'lgan shaxs;

- Kompaniyaning ustavida yoki aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarorlari bilan tasdiqlangan hujjatlarda belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan shaxs.

11.5. Kompaniyaning kuzatuv kengashi mustaqil a'zosining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun bilan belgilangan talablarga muvofiqligi o'zgargan taqdirda, u Kompaniyani va kuzatuv kengashini bu haqda ikki ish kuni ichida xabardor qilishi shart. Bu holda ushbu Ustavning 11.7 va 11.17 bandlariga muvofiq boshqa nomzod mustaqil a'zo sifatida saylanadi.

11.6. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida saylangan kuzatuv kengashi a'zosi mazkur yig'ilish bayonnomasida qaysi aksiyadorning vakili ekanligi yoki kuzatuv kengashining qaysi a'zosi mustaqil a'zo ekanligi ko'rsatilishi kerak.

11.7. Kuzatuv kengashining mustaqil a'ziligiga nomzodlar Kompaniyaning Kuzatuv kengashi tomonidan, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi ko'rib chiqishi uchun Kompaniyaning Kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizomida belgilangan tanlov tartibiga yoki Yagona aksiyador tomonidan yozma taklifi (qarori) asosida ko'rsatiladi.

11.8. Kompaniya kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi kuzatuv kengashining boshqa a'zolari bilan bir qatorda "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda belgilangan teng huquqlar va majburiyatlarga ega bo'ladi.

11.9. Yagona aksiyador qaroriga binoan Kompaniya kuzatuv kengashi a'zolariga ular o'z vazifalarini bajarib turgan davrda badal to'lanishi va (yoki) kuzatuv kengashining a'zosi vazifasini bajarish bilan bog'liq xarajatlari qoplanishi mumkin. Bunday badal va to'lovlarning miqdori Yagona aksiyador qarori bilan belgilab qo'yiladi.

11.10. Kompaniya kuzatuv kengashining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

11.10.1. Kompaniya faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

11.10.2. ushbu Ustav 10.5-bandi (10.5.1.) kichik bandida nazarda tutilgan masalalarni hal etishni Yagona aksiyador qaror qabul qilishiga kiritish;

11.10.3. mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

11.10.4. keyinchalik Yagona aksiyador tomonidan tasdiqlatish bilan, Kompaniyaning yillik biznes-rejasini ma'qullash. Bunda Kompaniyaning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasi kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay ma'qullanishi lozim;

11.10.5. ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, mehnat shartnomasini bekor qilish, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

11.10.6. Kompaniyaning ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Kompaniya Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Kompaniya Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishlari mumkin;

11.10.7. Yagona aksiyador muhokamasiga kiritiladigan masalalar Kompaniya Kuzatuv kengashi tomonidan ko'rib chiqiladi;

11.10.8. davlat ulushi bo'yicha dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan, Kompaniyaning investitsiya loyihalari, biznes-reja ko'rsatkichlari va moliyaviy holatidan kelib chiqqan holda tavsiyalar berish.

11.10.9. Kompaniyaning zaxira va boshqa fondlaridan foydalanish;

11.10.10. Kompaniyaning vakolatxonalarini ochish hamda filiallarini tashkil etish;

11.10.11. Kompaniyaning shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;

11.10.12. Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda yirik bitimlar tuzish hamda Kompaniyaning affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

11.10.13. tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;

11.10.14. yillik biznes-reja qanday bajarilayotgani to'g'risida ijroiya organining har chorakli hisobotini eshitish;

11.10.15. Kompaniyaning ustav fondini ko'paytirish masalalarini, shuningdek Kompaniya ustaviga Kompaniyaning ustav fondini ko'paytirish hamda Kompaniyaning e'lon qilingan aksiyalar soni kamayishi bilan bog'liq Ustaviga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalarni hal qilish;

11.10.16. aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;


11.10.17. Kompaniya tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

11.10.18. qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

11.10.19. Kompaniyaning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

11.10.20. Kuzatuv kengashi majlislarini so'rovnoma yoki video-konferens aloqa usuli orqali o'tkazish tartibini va holatlarini belgilash;

11.10.21. Kuzatuv kengashi va taklif etilgan mustaqil a'zoldardan iborat tegishli masalalar bo'yicha qo'mitalar tashkil etish, shu jumladan, nizolarni aniqlash va hal qilish uchun;



11.10.22. Kompaniyada korporativ boshqaruv tizimini baholashni tashkillashtirish, baholash huquqiga ega mustaqil tashkilotni tanlov asosida ijro organ tomonidan tanlash uchun yillik va choraklik xaridlar rejasida to'lov miqdorini xamda tekshirish davriyligini belgilash yo'li bilan ma'qullash;

11.10.23. Kompaniya ijroiya organi rahbarining transformatsiya masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari va loyiha ofisining xarajatlar smetasini tasdiqlash;

11.10.24. Kompaniyada transformatsiya jarayonlarini samarali tashkil etish, korxonaning tashqi qarzlarini optimallashtirish, zamonaviy xarid tizimini joriy etish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga muqobil mablag'larni jalb etish;

11.10.25. Kompaniya ijroiya organi rahbariga xususiylashtirish jarayonlarini, shu jumladan aksiyalarni ommaviy joylashtirishni (IPO) sifatli va belgilangan muddatlarda amalga oshirganligi uchun alohida mukofot yoki amalga oshirmaganlik uchun javobgarlik choralari belgilash;

11.10.26. Kompaniyaning asosiy faoliyatiga xos bo'lgan yangi ko'chmas mulk obyektlarini sotib olish yoki qurish hamda Kompaniya tomonidan boshqa xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalidagi ulushni sotib olish, shuningdek, Kompaniya va uning tarkibiy korxonalarining asosiy faoliyatidan tashqari qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullanish to'g'risida qarori qabul qilish;

11.10.27. Kompaniyaning boshqaruv organlari faoliyat tartibini belgilovchi hujjatlardan hamda Kompaniyaning korporativ boshqaruv prinsiplarini belgilovchi ichki nizomlardan tashqari barcha ijroiya organini vakolatida bo'lmagan boshqaruv hujjatlarni (nizomlarni) tasdiqlash;

11.10.28. mulkni begonalashtirish, uni sotish shakli va mexanizmini ma'qullash;


11.10.29. Kompaniya va uning tarkibidagi korxonalar ustav kapitaliga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritish bo'yicha kelishuvlar (bitim, shartnoma, memorandum va boshqalar) tuzishni ma'qullash. Bunda Davlat aktivlarini boshqarish agentligining xulosasini olish majburiydir.

11.10.30. Korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

11.10.31. Auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvini bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

11.10.32. Kompaniya xaridlarining yillik va choraklik reja-jadvallarini, shuningdek, import qilish rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatlarini xaridlarning maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqish;

11.10.33. Kompaniya ijroiya organiga to'lanadigan haq va mukofot miqdorini belgilash hamda to'lov to'g'risida qaror qabul qilish. Bunda biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilmagan yoki samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari "past" yoki



“qoniqarsiz” deb baholangan taqdirda ijroiya organi tomonidan o‘tgan hisobot yilida to‘langan mukofotni to‘liq Kompaniyaga qaytarish masalasini ko‘rib chiqish;

11.10.34. Kompaniyaning rahbar lavozimlariga o‘tkaziladigan tanlov reglamentini tasdiqlash, ijroiya organi rahbari va uning o‘rinbosarlari lavozimlariga tanlov e‘lon qilish va o‘tkazish, bunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati qarorlarida nazarda tutilgan hollar mustasno;

11.10.35. Boshqaruv raisi o‘rinbosarlari bilan mehnat shartnomalarni tuzish, muddatini cho‘zish bo‘yicha tegishli qaror qabul qilish va zarur hollarda boshqaruv raisiga Kompaniya nomidan Boshqaruv raisi o‘rinbosarlari bilan mehnat shartnomalarini rasmiylashtirish uchun tegishli vakolat berish;

11.10.36. Kompaniya tomonidan homiylik (xayriya) yoki beg‘araz yordam ko‘rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash hamda bu borada qaror qabul qilish. Bunda, Kompaniyaning; homiylikka sarflanadigan har yilgi xarajatlari o‘tgan yilda olingan sof foydaning 3 foizidan oshmasligi kerak hamda bu xarajatlar ular biznes-rejasining o‘tgan hisobot davridagi sof foydaga taalluqli qismi ko‘rsatkichlari bajarilganda amalga oshiriladi (bundan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati qarorlarida nazarda tutilgan hollar mustasno);

11.10.37. Kompaniyani yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini jadallashtirish;

11.10.38. Kompaniyaning kuzatuv kengashi a‘zolaridan iborat qo‘mitalar (Strategiya va investitsiyalar, Audit, Tayinlovlar va haq to‘lash, Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika va boshqa) tuzish, ularning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, qo‘mitalar xodimlarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, qo‘shimcha to‘lovlarni oshirish to‘g‘risida tegishli qarorlarni qabul qilish (yagona aksiyador tomonidan tasdiqlangan “O‘zavtosanoat” AJ Kuzatuv kengashi a‘zolarini mukofotlash to‘g‘risida”gi Nizomida belgilangan tartibda).


11.10.39. Kompaniya kuzatuv kengashi huzuridagi qo‘mitalarining raislari Kompaniya Kuzatuv kengashining mustaqil a‘zolari orasidan tayinlash hamda muddatidan oldin vakolatlarini tugatish;

11.10.40. Kompaniyaning hisobvarag‘ida to‘plangan maqsadli mablag‘lardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash, unga o‘zgartirish kiritish va ushbu Nizomga asosan mablag‘lardan foydalanish bo‘yicha tegishli qaror qabul qilish.

11.10.41. Qonunchilik va Kompaniya Ustaviga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

11.11. Kompaniya Kuzatuv kengashi raisining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- Kompaniya kuzatuv kengashining mustaqil a‘zolari bilan shartnomalarni (shartnomalariga qo‘shimcha bitimlarni) imzolash va ushbu shartnomalarga hamda Yagona aksiyadorni qarori bilan tasdiqlangan tegishli nizomga asosan ijroiya organ tomonidan mustaqil a‘zolarga to‘lovlarni amalga oshirish bo‘yicha tegishli qarorlarni qabul qilish;



- Kompaniya ijroiya organi rahbarini mehnat shartnomasini imzolash va ushbu shartnomaga asosan mehnat va boshqa turdagi ta'tillarga hamda xizmat safariga rozilik boshqaruv raisi tomonidan kiritilgan tegishli arizani imzolash yo'li bilan rozilik berish;

- Yagona aksiyadorni qarori bilan tasdiqlangan tegishli nizomga asosan Kuzatuv kengashi tarkibidagi qo'mitalar a'zolariga qo'shimcha to'lovlarni belgilash va to'lash to'g'risida tegishli qaror qabul qilish.

11.12. Ijroiya organining a'zolari kuzatuv kengashiga saylanishlari, tayinlanishlari mumkin emas. Kompaniyada mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar mazkur Kompaniyaning kuzatuv kengashi a'zolari bo'lishi mumkin emas.

11.13. Kompaniya kuzatuv kengashining raisi kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan ularning o'zlari orasidan kuzatuv kengashi a'zolari umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi.

11.14. Kompaniya kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlisda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi.

11.15. Kompaniya kuzatuv kengashining raisi yo'qligida uning vazifasini kuzatuv kengashi raisining o'rinbosari bajarib turadi.

11.16. Kompaniya kuzatuv kengashining majlisi kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, Kompaniya kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi (taftishchisining) va Boshqaruvi a'zosining, talabiga ko'ra chaqiriladi. Kompaniya kuzatuv kengashining majlisini chaqirish va o'tkazish tartibi Kompaniyaning ustavida hamda Yagona aksiyador tomonidan tasdiqlangan "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi Nizomida belgilab qo'yiladi.

Kuzatuv kengashi majlisi videokonferensiyaaloqa tizimi orqali hamda so'rovnoma yo'li bilan, shu jumladan, elektron ovoz (e-VOTE) berish yo'li bilan o'tkazilishi mumkin.

11.17. Kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish uchun kvorum, Kuzatuv kengashi a'zolarining yetmish besh foizini tashkil etadi. Kuzatuv kengashi a'zolarining soni Yagona aksiyador qarori bilan belgilangan miqdorning yetmish besh foizidan kam bo'lib qolsa, Kompaniya kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun Kompaniya Yagona aksiyadorga taklif kiritishi lozim. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari ushbu taklifni Yagona aksiyadorga kiritish haqida qaror qabul qilish, shuningdek ijroiya organi rahbarining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir.

11.18. Ushbu Ustav 11.10.-bandi (11.10.12.), (11.10.15.) va (11.10.19.) kichik bandlarida nazarda ko'rsatilgan masalalar bo'yicha qaror Kompaniya kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi, Kompaniya kuzatuv kengashining majlisida qolgan qarorlar, agar ushbu Ustavda va qonunchilikda nazarda tutilmagan bo'lsa majlisda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Kompaniya



kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi.

11.19. Kompaniya kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi.

11.20. Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lingan hollarda kuzatuv kengashining qarorini qabul qilishda kuzatuv kengashi raisiga hal qiluvchi ovoz huquqi tegishlidir.

11.21. Kompaniya Kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng 10 kundan kechiktirmay tuziladi. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolanadi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

11.22. Kompaniya Kuzatuv kengashining majlislarining bayonnomalari (qarorlari) o'rnatilgan tartibda oshkor etiladi. "Maxfiy" va "Xizmat doirasida foydalanish uchun" ustixati ostidagi bayonlar (qarorlar) bundan mustasno.

12-MODDA. KOMPANIYANING IJROIYA ORGANI

12.1. Kompaniyaning kundalik faoliyatiga rahbarlik kollegial ijroiya organi (Boshqaruv) tomonidan amalga oshiriladi. Boshqaruv – Boshqaruv raisi, ikkita boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari va boshqaruv raisining to'rtta o'rinbosaridan iborat. Boshqaruv raisi, boshqaruv raisining birinchi o'rinbosarlari va boshqaruv raisining o'rinbosarlarini tayinlash (saylash) tanlov asosida Yagona aksiyador qaroriga asosan amalga oshiriladi, bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati qarorlari va topshiriqlarda nazarda tutilgan hollar mustasno.


Tanlovda yuqori malakali xorijiy menedjerlar ham ishtirok etishi mumkin va Kompaniyaning boshqaruv raisi, boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari yoki boshqaruv raisining o'rinbosari etib saylanishi mumkin.

Tanlovda Boshqaruv a'zolari lavozimlariga tavsiya etilayotgan nomzodlar quyida belgilangan malaka talablariga mos kelgan taqdirda saylanadi:

- oliy (texnik, moliyaviy, iqtisodiy, yuridik) ma'lumotga ega bo'lishi;
- 10 yildan kam bo'lmagan ish stajiga ega bo'lishi, shundan rahbarlik lavozimida kamida 3 yil ish stajiga ega bo'lishi.

Kompaniya Boshqaruv raisligiga tayinlangan shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq ijroiya organi rahbari bo'lishi mumkin emas.

12.2. Yagona aksiyador tomonidan tayinlanadigan Boshqaruv tarkibiga kirgan shaxsning vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, Kuzatuv kengashi qarori bilan belgilangan shaxs uning vazifalarini Yagona aksiyador yillik qarori qabul qilishigacha bo'lgan davrda vaqtincha bajarib turishiga yo'l qo'yiladi.



12.3. Boshqaruvning vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- Kompaniyaning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, Yagona aksiyadorning vakolatlariga yoki Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalar bundan mustasno;

- mol-mulkni qarzga berish, kafillik bilan ta'minlash, moliyaviy (homiylilik/hayriya) yordam ko'rsatish, garovga qo'yish, ko'chmas mulkni tasarrufdan chiqarish bilan bog'liq bo'lgan bitimlarni tuzish, Kompaniya Yagona aksiyadori va Kuzatuv kengashi vakolatiga tegishli bitimlar bundan mustasno. Bunda homiylikka sarflanadigan yillik xarajatlar o'tgan yilda olingan sof foydaning 3 foizidan oshmasligi kerak hamda bu xarajatlar Kompaniya biznes-rejasining o'tgan hisobot davridagi sof foydaga taalluqli qismi ko'rsatkichlari bajarilganda amalga oshiriladi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati qarorlari va topshiriqlarda nazarda tutilgan hollar mustasno);

Bunda mulkni begonalashtirish, uni sotish shakli va mexanizmi majburiy tarzda Kompaniya kuzatuv kengashi bilan kelishilgandan keyin tuziladi;

- kuzatuv kengashi bilan kelishilgan holda:

a) mulkni begonalashtirish, uni sotish shakli va mexanizmi belgilash;

b) Kompaniya va uning tarkibidagi korxonalar ustav kapitaliga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritish bo'yicha kelishuvlar (bitim, shartnoma, memorandum va boshqalar) tuzish. Bunda Kompaniya va uning tarkibidagi korxonalar ustav kapitaliga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritish bo'yicha kelishuvlari (bitim, shartnoma, memorandum va boshqalar) majburiy tarzda Kompaniya kuzatuv kengashi bilan kelishilgandan keyin tuziladi.

12.4. Boshqaruv raisining vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- Yagona aksiyador va kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini tashkil etish;

- Kompaniyaning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar va farmoyishlar chiqarish va ko'rsatmalar berish;

- Kompaniya nomidan ishonchnomasiz ish yuritish, shu jumladan uning manfaatlarini ifoda etish;

- boshqa shaxslarga ishonchnomalarni berish;

- Kompaniyaning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlash;

- Kompaniya nomidan bitimlarni tuzish, Kompaniya Yagona aksiyadori, Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi vakolatiga tegishli bitimlar bundan mustasno.

- maxfiy ma'lumotlar ro'yxatini va uni olish tartibini aniqlash;

- Yagona aksiyador va Kuzatuv kengashiga kelgusi yilga biznes-rejani, Kompaniya moliya-xo'jalik faoliyati balansini, chorakli va yillik xisobotlarni, foydani taqsimlash va zararlarni qoplash bo'yicha takliflarni taqdim etishni ta'minlash;

- shtatlarni tasdiqlash;



- Kompaniya xodimlari bilan mehnat shartnomalarni tuzish va bekor qilish, mehnat haqi shakl va miqdorini, moddiy va boshqa rag‘batlantirishning turlarini belgilash;

- Kompaniya faoliyatining moliyaviy, investitsion, ishlab chiqarish dasturlarini amalga oshirishni tashkil qilish;

- banklarda hisoblarni ochish;

- Kuzatuv kengashi bilan kelishilgan holda Ijroiya organi rahbari o‘rinbosarlari bilan mehnat shartnomalarini (mehnat shartnomalariga qo‘shimcha bitimlarni) imzolash va ushbu shartnomaga asosan mehnat va boshqa turdagi ta‘tillarga hamda xizmat safariga rozilik boshqaruv raisi tomonidan kiritilgan tegishli arizani imzolash yo‘li bilan rozilik berish;

- Yagona aksiyador tomonidan tasdiqlangan xodimlarning maksimal soni doirasida va tarkibiy bo‘linmalarni nomini saqlab qolish sharti bilan zaruriy holda bir bo‘linmadan boshqa bo‘linmaga xodimlarni o‘tkazish sababli bo‘limdagi xodimlarni sonini o‘zgartirish;

- Kompaniya faoliyatini ta‘minlab berish maqsadida boshqa vazifalarni bajarish.

12.5. Agar Kompaniyaning Ijroiya organi tomonidan yirik bitim yoki affillangan shaxslar bilan bitim tuzish tartibi buzilganligi natijasida Kompaniyaga zarar yetkazilgan bo‘lsa va bunda Kompaniya kollegial Ijroiya organining aybi qonunchilikda belgilangan tartibda isbotlansa, Kompaniyaning kreditorlar oldidagi qarzdorligini qoplash uchun uning mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda Kompaniyaning majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javobgar bo‘ladi.

12.6. Kompaniyaning Boshqaruvi o‘z faoliyatini ushbu Ustav, amaldagi qonunchilik va Yagona aksiyador tomonidan tasdiqlangan “Kompaniya Boshqaruvi to‘g‘risida”gi Nizom asosida olib boradi.


12.7. Kompaniya Boshqaruvi a‘zolari majburiyat va javobgarliklari ushbu Ustav, amaldagi qonunchilik, “Kompaniya Boshqaruvi to‘g‘risida”gi Nizomi hamda ular bilan tuziladigan shartnomada belgilanadi.

Bunda Kompaniyaning Ijroiya organi a‘zolari javobgarligi Kompaniya Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan me‘yoriy hujjatlar asosida sug‘urtalanadi.

13-MODDA. KOMPANIYA TAFTISH KOMISSIYASI

13.1. Kompaniyaning moliya-xo‘jalik faoliyati ustidan nazorat qilish maqsadida, Yagona aksiyador tomonidan bir yil muddatga beshta a‘zodan iborat bo‘lgan Taftish komissiyasi saylanishi mumkin. Yagona aksiyador qaroriga ko‘ra Taftish komissiyasining miqdor tarkibi o‘zgartirilishi mumkin. Kompaniyada mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida ishlaydigan shaxslar Kompaniya Taftish komissiyasi a‘zosi bo‘lishi mumkin emas.

13.2. Taftish komissiyasi faoliyatining tartibi Yagona aksiyador tomonidan tasdiqlanadigan nizomda belgilab qo‘yiladi.



13.3. Kompaniyaning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha taftish komissiyasining tashabbusiga, Yagona aksiyadorning, kuzatuv kengashining qaroriga binoan amalga oshiriladi.

13.4. Taftish komissiyasining talabiga binoan Kompaniyaning boshqaruv organlaridagi mansabdor shaxslar moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni taftish komissiyasiga taqdim etishlari shart.

13.5. Taftish komissiyasining a'zolari bir vaqtning o'zida kuzatuv kengashining a'zosi bo'lishlari, shuningdek Kompaniyaning boshqaruv organlarida boshqa lavozimlarni egallashlari mumkin emas. Kuzatuv kengashining a'zolariga yoki boshqaruv organlaridagi mansabdor shaxslarga qarashli aksiyalar Kompaniya taftish komissiyasi a'zolarini saylash chog'ida ovoz berishda ishtirok etishi mumkin emas.

14-MODDA. KOMPANIYANING ICHKI AUDIT XIZMATI

14.1. Ichki audit xizmati Kompaniyaning ijroiya organi, vakolatxonalari va filiallari tomonidan qonun xujjatlariga, ta'sis hujjatlari va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda to'g'ri aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek Kompaniyani boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish va bu borada monitoring olib borish orqali ijroiya organi, vakolatxonalari va filiallari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi.

14.2. Ichki audit xizmati Kuzatuv kengashiga hisobotdordir.

14.3. Ichki audit xizmati o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibga muvofiq amalga oshiradi.

15-MODDA. KORPORATIV MASLAHATCHI

15.1. Kompaniyada korporativ qonunchilikka rioya qilinishini nazorat qilish Kuzatuv kengashiga hisobotdor bo'lgan Korporativ maslahatchi tomonidan amalga oshiriladi.

15.2. Kompaniya korporativ maslahatchisi o'z faoliyatini Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan "Korporativ maslahatchi to'g'risida"gi Nizomga asosan olib boradi.

15.3. Korporativ maslahatchini moddiy rag'batlantirish Kompaniyaning korporativ boshqaruv tizimini baholash bilan bog'liqdir.

15.4. Korporativ maslahatchini ishga olish va bo'shatish, uning oylik maoshini, moddiy rag'batlantirish miqdorini ko'rib chiqish Kuzatuv kengashi tomonidan hal qilinadi.

16-MODDA. YILLIK HISOBI TLARNI TUZISH, TEKSHIRISH VA TASDIQLASH TARTIBI

16.1. Kompaniya qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisob-kitobini yuritishi va moliya hisobotini taqdim etishi shart.



21

16.2. Kompaniyada buxgalteriya hisob-kitobini tashkil etish, uning holati va to'g'ri yuritilishi, tegishli organlarga har yilgi hisobot va boshqa moliya hisobotlari, shuningdek aksiyadorlar, kreditorlar va ommaviy axborot vositalariga Kompaniya faoliyatiga doir ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgarlik qonun hujjatlariga muvofiq ijroiya organi zimmasida bo'ladi.

16.3. Yagona aksiyadorga taqdim etadigan yillik hisobotidagi, buxgalteriya balansidagi, foyda va zararlar hisob varag'idagi ma'lumotlarning to'g'ri ekanligi, Kompaniya yoki uning aksiyadorlari bilan bog'liq bo'lmagan auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlanishi lozim.

16.4. Kompaniyaning yillik hisoboti Yagona aksiyadorning yillik qarorini qabul qilinadigan sanadan oldin kuzatuv kengashi tomonidan dastlabki tarzda tasdiqlanishi lozim.

17-MODDA. KOMPLAENS XIZMATI (DEPARTAMENTI)

17.1. Jamiyat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik talablariga rioya qilinishiga javobgar bo'lgan Komplaens xizmati tuziladi. Komplaens xizmati (departamenti) xodimlarining soni va tuzilmasi yagona aksiyador tomonidan tasdiqlangan Kompaniyaning tashkiliy tuzilmasida belgilanadi.

17.2. Komplaens xizmati ichki me'yoriy hujjatlar asosida ish yuritadi.

17.3. Komplaens xizmati Jamiyatning va uning tarkibiy bo'limlari faoliyatini monitoring qilish va baholash huquqiga ega.

18-MODDA. FILIAL, VAKOLATXONA, SHU'BA VA TOBE JAMIYATLARI TASHKIL ETISH VA OCHISH TARTIBI

18.1. Kompaniya filiallar tashkil etishi hamda vakolatxonalar ochishi mumkin. Ular Kompaniya tomonidan mol-mulk bilan ta'minlanadi va Kompaniya tasdiqlagan nizomlar asosida ish ko'radi.

18.2. Filial yoki vakolatxonaning rahbari Kompaniya tomonidan tayinlanadi va Kompaniya bergan ishonchnoma asosida ish ko'radi.

18.3. Filial hamda vakolatxona faoliyati uchun javobgarlik Kompaniya zimmasida bo'ladi.

18.4. Kompaniya aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi shu'ba va tobe xo'jalik jamiyatlariga ega bo'lishi mumkin.

18.5. Shu'ba va tobe jamiyatlari tashkil etish tartibi va huquqiy maqomi qonunchilik asosida bo'ladi.

18.6. Filiallar, vakolatxonalar tashkil etilganligi va ularning ustav fondi (ustav kapitali) shakllantirilganligi hamda to'lovga qobiliyatsizligi yuzasidan ish qo'zg'atilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali"da e'lon qilinadi.

19-MODDA. KOMPANIYANI QAYTA TUZISH VA TUGATISH TARTIBI

19.1. Kompaniyani qayta tashkil etish Yagona aksiyadorning qarori asosida qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish tarzida amalga oshiriladi.



22

Yangi tuzilgan yuridik shaxslar davlat ro'yxatiga olingan paytdan e'tiboran Kompaniya qayta tashkil etilgan deb hisoblanadi, birlashtirish tarzida qayta tashkil etish bundan mustasno.

Kompaniya boshqa yuridik shaxsga qo'shib yuborish yo'li bilan qayta tashkil etilganda ro'yxatdan o'tkazuvchi organ qo'shib yuborilgan yuridik shaxsning (jamiyatning) faoliyati tugatilganligi haqidagi yozuvni yuridik shaxslarning yagona davlat ryestriga kiritgan paytdan e'tiboran jamiyat qayta tashkil etilgan deb hisoblanadi.

19.2. Kompaniya ixtiyoriy ravishda yoki sud qaroriga asosan tugatilishi mumkin.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ yuridik shaxslarning yagona davlat ryestriga tegishli yozuvni kiritgan paytdan e'tiboran Kompaniyani tugatish tamomlangan, Kompaniya esa faoliyatini tugatgan deb hisoblanadi.

Kompaniya tugatish uning huquq va majburiyatlari huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxslarga o'tmagan holda Kompaniya faoliyatining to'xtatilishiga olib keladi.

19.3. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda Kompaniyani qayta tashkil etish va tugatish amalga oshiriladi.

“O'zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyati
Boshqaruvi raisi



U.U.Rozukulov

A large, stylized blue ink signature.

A blue ink signature.